

RAVSHAN RAJABOV

JAHON TARIXI

II Q I S M
QADIMGI YUNONISTON, RIM

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim
vazirligi tomonidan 5110600 Tarix o'qitish
metodikasi ta'lim yo'nalishi talabalari
(o'quvchilari) uchun darslik sifatida
tavsiya etilgan*


YANGI ASR AVLODI
Toshkent
2020

UO‘K: 94(100) (075)

KBK: 63.3 (0)

R – 17

Rajabov, Ravshan

Jahon tarixi / Ravshan Rajabov. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2020. – 656 b.

ISBN 978-9943-20-748-6

O‘quv darsligi Jahon tarixi fanining yangi dasturi bo‘yicha 2015-yildagi nashri asosida qayta ishlanib, fanning yangi ma’lumotlari bilan to‘ldirilgan. Darslik ikki bo‘limdan iborat: qadimgi Yunoniston va Rim tarixi. Darslikda qadimgi Yunoniston va Rim tarixida sodir bo‘lgan asosiy voqea-hodisalar, g‘arbda ilk davlat va jamiyatlarning paydo bo‘lishi, ularning gullab-yashnashi va so‘nish davri milodiy V asrgacha yoritilgan. Qadimgi sivilizatsiyaning iqtisodiy-ijtimoiy tuzilmalari, siyosiy davlat tashkilotlari, madaniyatlarining asosiy sohalari tahlil qilinadi.

Darslik oliy o‘quv yurtlari tarix fakulteti talaba va o‘qituvchilari, maktab va litsey o‘quvchilariga hamda jahon tarixi va madaniyatini o‘rganuvchi mutaxassislar va erkin izlanuvchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:

M. RAHIMOV,
tarix fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:

X. RAUPOV,
tarix fanlari nomzodi, dotsent
X. QURBONOV,
tarix fanlari nomzodi

ISBN 978-9943-20-748-6

© Ravshan Rajabov, «Jahon tarixi». «Yangi asr avlodi», 2020-yil.

I BO'LIM

I BOB

QADIMGI YUNON TARIXIGA KIRISH

Gay Sallyutsiy Krisp (mil. avv. 86 – 35-yillar) o'zining «Katilina fitnasi» asarida shunday yozgan edi: «Mening fikrimcha, afinaliklarning turli sohada qilayotgan ishlari ajoyib va tahsinga sazovordir. Biroq afinaliklarning noyob qobiliyatga ega yozuvchilari borligi tufayli, ular afinaliklarning o'zlari munosib bo'lgandan ham ortiq shon-shuhrat olib keldilar».

Janubi-Sharqiy Yevropada joylashgan Bolqon yarim orolining janubiy qismi, unga yaqin bo'lgan Ioniya, O'rtayer va Egey dengizi orollarida joylashgan Yunoniston hududida (121,99 ming km.kv.)qadimgi yunonlar mil. avv. I ming yillikda Yevropa sivilizatsiyasining ilk poydevorini bunyod etdilar. Zamona-viy demokratiyaning ilk unsurlari Attika viloyatida, Yunonistonda qadimgi Afina shahar-davlatida paydo bo'lgan deb aytiladi. Qadimgi Yunon va Rim sivilizatsiyasi ham hozirgi Yevropa sivilizatsiyasining poydevoridir. Qadimgi Yunon tarixi xilma-xil adabiyotlar orqali bizgacha yetib kelgan. Shuning uchunmi yoki boshqa sabablar bilanmi qadimgi Yunon tarixi Yevropa tarixiy adabiyotida batafsil va atroflicha yoritilgan. Bu manba va adabiyotlarda qadimgi Yunon shahar-davlatlari tarixi, ulardagi davlat boshqaruvining demokratiya, tiraniya shakllaridagi tartib-qoidalari, Yunon shahar davlatlarining siyo-

siy-iqtisodiy va ijtimoiy-madaniy hayoti to'g'risida ma'lumot beriladi.

Qadimgi Yunon tarixi bo'yicha manba va adabiyotlar yaxshi saqlanib qolgan va ular atroficha tadqiq va tahlil etilgan. Qadimgi davridayoq yunonlar o'z tarixlari to'g'risida boshqa xalqlar bilan olib borgan yozishmalari orqali juda ko'p ma'lumotlarni yetkazganlar. (Гай Саллюстий Крисп. Заговор Катилины, стр. 39. Историки Рима. Переводы с латинского. Изд.худ-лит. 1970 г.) Antik davr yozuvchilari ya'ni Qadimgi Yunon-Rim yozuvchilari ishonchli manbalar yetmay qolganda yunon tarixini yoritishda mifologiyadan ham unumli foydalanganlar. Hatto qadimgi manba va adabiyotlarning ko'pchiligida voqea-hodisalar bayoni mifologiya syujetlari bilan aralashib ketadi. Bu holni barcha qadimgi Yunon yozuvchilarning matnlarida kuzatishingiz mumkin. Lekin fanda ma'lumki, mifologiya ishonchsiz manba. Mil. avv. XI – IX asrlarda yunon urug'-qabilalari tarixini yoritishda yetarli ma'lumotlar to'qima bo'lmagani uchun Yevropa tarixchilari bu davr tarixini mifologik manbalar (Iliada va Odisseya dostonlari) asosida yoritadilar. Lekin mifologiyadagi ma'lumotlar qanchalik darajada haqiqatga to'g'ri kelishini bilish mumkin emas. Mifologik manbalarni tanqidiy tahlil qilishda aniq manbalar taqchil bo'lgani uchun ularning ma'lumotlari qanchalik haqiqatga to'g'riligini aniqlab bo'lmasligi sababli ular ishonchsiz manba hosoblanadi.

Insoniyat sivilizatsiyasining beshigi, besh ming yillik tarixga ega bo'lgan Sharq sivilizatsiyasi yunon madaniyati shakllanishida muhim o'rinni egalladi. Sharqning ilm-fan, madaniyat va boshqa sohalarida erishgan ulkan yutuqlari mil. avv. I ming yillik boshlarida shakllanayotgan yunon madaniyatiga

katta ta'sir qildi. Yunonlar mil. avv. VIII – VII asrlarda Kichik Osiyo orqali ilk bor sharq madaniyati bilan tanishdilar va uni o'rgandilar. Bu davr yunon madaniyatining o'choqlari Yunonistonda emas, Sharq dunyosining gavjum chorrahasi bo'lgan Kichik Osiyo va unga yaqin Egey dengizi orollarida edi. Dastavval, Kichik Osiyoning g'arbiy qirg'og'ida vujudga kelgan yunon tayanch nuqtalari bo'lgan Milet, Halikarnas shaharlari va Lesbos, Samos orollari sharqning ko'p ming yillik boy madaniyatidan rang oldi va sharq madaniyat yutuqlarini Yunonistonga tarqatishda muhim o'rinni egalladilar.

Mil. avv. VIII asrda yunonlar Finikiyaning alifboli yozuvini o'zlashtirib o'z fonetikalariga moslashtirdilar. Mil. avv. V asrdan yunon yozuvini chapdan o'ngga qarab yozish rasm bo'ldi. Yunon alifbosining bir necha asrlar davomida shakllanishi mil avv. 4 asrda tugallandi.

Ilk bor yunonlar qadimgi sharq bilan Kichik Osiyo orqali tanishdilar. Kichik Osiyo yunonlarning sharq madaniyati va ma'naviyati yutuqlarini o'zlashtirishda asosiy tayanch nuqta bo'ldi. Shu sababli yunon mifologiyasining ildizlari qadimgi sharqda Xett¹ podshohligi rivoyatlariga borib taqaladi. Xett qabilalari rivoyatlarining syujetlari Kichik Osiyoga mil. avv. I ming yillikda kelib o'rnashgan evbeylik yunonlar tomonidan o'zlashtirilgan va Yunonistonga olib ketilgan. Yunonlar Xett e'tiqodi ilohlarini ham Yunonistonga olib ketadilar. «Iliada» dostonining muallifi shoir Daret mil. avv. XI asrda Kichik Osiyodagi Frigiya yashagan edi. Zardushtiylik e'tiqodi g'oyalari bo'lgan to'rt unsur: olov, suv, tuproq, havo mil. avv. VI asrda Efesda yashagan yunon faylasufi Geraklitning olam tuzilishi to'g'risidagi tadqiqi paydo bo'lishi

¹ Kichik Osiyodagi qadimgi davlat.